



**BOSHLANG`ICH SINF O`QUVCHILARINI ONA TILI DARSLARIDA
IJODIY FIKRLASHGA O`RGATISH USULLARI VA UNGA TA'SIR
QILUVCHI OMILLAR**

Akbarova Munojatxon Sotvoldiyevna

*Farg`ona viloyati Farg`ona tumani 51-sonli
o`rta maktabi boshlang`ich sinf o`qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada boshlang`ich ta`lim o`quvchilarini ona tili darslari orqali ijodiy fikrlashga o`rgatish usullari va bu jarayonga ta`sir etuvchi omillar, bu borada bir qator tadqiqotchilarning munosabatlari keng yoritib berilgan. Chunki ijodiy fikrlay oladigan o`quvchilarga zamonaviy ta`limimiz mohiyatini teran anglay oladi.

Kalit so`zlar: : ijodiy fikr, ijodiy tafakkur, fikrlash qobiliyati, fikr erkinligi, boshlang`ich ta`lim, ta`lim metodlari, o`quvchi faoliyati, hamkorlikda o`qitish.

Abstract: The methods of teaching elementary school students to creative thinking through native language classes and the factors influencing this process, as well as the attitudes of a number of researchers in this regard, are widely covered.

Key words: creative thought, creative thinking, ability to think, freedom of thought, primary education, educational methods, student activity, cooperative teaching.

Аннотация: Широко освещены методы обучения учащихся младших классов творческому мышлению посредством занятий родным языком и факторы, влияющие на этот процесс, а также взгляды ряда исследователей по этому поводу.

Ключевые слова: творческая мысль, творческое мышление, способность мыслить, свобода мысли, начальное образование, методы обучения, деятельность учащихся, совместное обучение.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyev “Bugungi kunda “Farzandlarimiz bizdan ko`ra kuchli, bilimli, dono va albatta baxtli bo`lishlari shart!” degan hayotiy da`vat har birimizning, ota-onalar va keng jamoatchilikning ongi va qalbidan mustahkam o`rin egallagan” deb ta`kidlab o`tgan. Yoshlar va ularga davlat hamda jamiyatning munosabati to`g`risida Prezidentimiz tomonidan quyidagi fikrlar bildirilgan “Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intelektual va ma’naviy salohiyatga ega bo`lib, dunyo miqqosida o`z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo`sh kelmaydigan insonlar bo`lib kamol topishi, baxtli bo`lishi uchun davlatimiz va jamiyatning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz.”

Darhaqiqat, hozirgi kunda Respublikamizning barcha ta`lim muassasalarida o`quvchi-yoshlarning yuksak ma’naviyatli, mustaqil va erkin fikrlash ko`nikmasiga



ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

International scientific journal

Volume: 2 Issue: 2



ega bo'lishlari, zamonaviy ilm-fan yutuqlarini puxta o'zlashtirishlari uchun barcha shart-sharoitlar yaratilgani, jahon standartiga javob beradigan o'quv xonalari, axborot-kommunikatsiya, zamonaviy labaratoriya jihozlari bilan ta'minlaganligining guvohi bo'lmoqdamiz. Respublikamizda uzlucksiz ta'lim tizimi yaratilgan bo'lib, boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchi shaxsining rivojlanishi, atrof-olamni idrok etishi, bilimlarni o'zlashtirishi, malaka va ko'nikmalar, ilmiy tasavvurlarining hosil bo'lishida muhim bosqich hisoblanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchisida bilish jarayoni ijodiy faoliyat natijasida yuz beradi. O'quvchining berilgan topshiriqni bajarishi jarayonida izlanishi, ijodiy faoliyati namoyon bo'lishi uchun aniq maqsadga yo'naltirilgan, rejalashtirilgan, me'yor va mezonlarga ega bo'lgan, o'z-o'zini anglagan faoliyat zaruriyati seziladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy faollikni shaklantirish texnologiyasi ishlab chiqish muammosi ko'p qirrali pedagogik-psixologik ijtimoiy vazifalardan biri bo'lib, jamiyat ijtimoiy rivojlanishi va taraqqiyoti uchun dolzarb vazifalardan biridir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodiy fikrlashga o'rgatish bir kunda yoki bir soatlik dars davomida amalga oshirilmasdan, balki yillar davomida bosqichma-bosqich turli omillar ta'sirida amalga oshiriladigan jarayondir.

Olib borilgan kuzatishlarga qaraganda ta'lim metodlarining barchasi ham o'quvchilarni ijodiy fikrlashga o'rgatish vositasi bo'la olmaydi. Ammo darsda turli metodlarni qo'llash orqali ta'lim samaradorligini oshirishga, bilimlarni egallash jarayonining zerikarli bo'lmasligiga erishish mumkin.

Ta'lim metodlari xilma-xil bo'lib, o'xhash xususiyatlariga ko'ra guruxlarga birlashtiriladi.

Ta'lim metodlarining tasnifiga oid turli qarashlar mavjud: ba'zi mutaxassislar ta'lim metodlarini tasnif etishda bilim manbalarini hisobga olishsa, ayrim olimlar o'qituvchi faoliyati xususiyatlaridan kelib chiqishadi, uchinchi bir guruh olimlar esa o'quvchilar faoliyatini e'tiborga olishadi. Ta'lim metodlariga bunday qarashlarning ko'p va rang-barang bo'lishi tabiiy. Chunki ta'lim metodlari mazmunan boy hodisa bo'lib, ular ma'lumot mazmuni bilan ham, o'qituvchi va o'quvchi faoliyati bilan ham, bilim va malakalar bilan ham, shuningdek, ijodiy qobiliyatlarni, munosabatlarni rivojlantirish bilan ham chambarchas bog'liqidir.

Masalan, Yu.K.Babanskiy ta'lim metodlarini o'quvchilarning faoliyati nuqtai nazaridan tasnif etadi. U ta'lim metodlarini uch guruhg'a ajratadi:



ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

International scientific journal

Volume: 2 Issue: 2



o‘quv-biluv faoliyatini uyushtirish va amalga oshirish metodlari;
o‘quv-biluv faoliyatini rag`batlantirish va asoslash metodlari;
-o‘quv-biluv faoliyati samaradorligini nazorat qilish metodlari
har bir guruh, o‘z navbatida, yana kichikroq guruxlarga ajratiladi. Masalan, bиринчи гурӯҳ методларига quyidagilar kiradi: og`zaki bayon qilish, ko‘rgazmali metodlar, amaliy metodlar, induktiv va deduktiv metodlar, muammoli-izlanish metodlari, ijodiy ishslash metodlari.

Rag`batlantirish va nazorat qilish metodlari ham o‘z tarkibida guruxlarga ajratiladi.

Ta'limning muammoli metodi faqat o‘qituvchini bilimlarni bayon etishga emas, balki o‘quvchilarni ijodiy ravishda izlanishga, fikr yuritishga yo‘naltirishi lozim.

A.G`ulomov va M.Qodirovlar xususiy metodlar, ya'ni ona tili ta'limi jarayonida qo‘llaniladigan metodlar borasida to‘xtalib o‘tadilar. Ular ta'limni ikkiyoqlama jarayon ekanligini hisobga olib, ta'lim metodlarini ikki katta guruhga ajratadilar:

- o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar.
- O‘quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar
- o`qituvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar bilimlarni tayyor holda bayon etish va muammoli bayon qilish metodlariga ajratilgan.
- o‘quvchi faoliyati bilan bog`liq metodlar guruhiga qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik va izlanishga asoslangan metodlar kiradi

Ta'lim metodlarini tahlil qilib chiqar ekanmiz, ulardan unumli va o‘rnida foydalanish o‘quvchilarni ijodiy fikrlashga o‘rgatishda juda qo‘l kelishini ko‘ramiz.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ona tili darslarida ijodiy fikrlashga o‘rgatish usullari va unga ta'sir qiluvchi omillarini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta'lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor yo‘nalishlarini izlanuvchi ta'lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta'limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga ko‘ramiz. || O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis



ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES

International scientific journal

Volume: 2 Issue: 2



palatalarining qo'shma majlisidagi nutq- T.: << O'zbekiston>> NMIU, 2016. – 13-6.

2. Ikromjonovna, J. S. (2023). BOSHLANG'ICH SINFLARGA TA'LIM BERISH JARAYONIDA ZAMONAVIY METOD VA VOSITALARNING AHAMIYATI. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 581-583.
3. Abduraxmonova, N. A. qizi. (2023). BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING IJODIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 208–211. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5507>
4. Komiljonova, G. N. qizi. (2023). FANLARARO BOG'LANISH ASOSIDA BOSHLANG'ICH TA'LIMNI AMALGA OSHIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Educational Research in Universal Sciences, 2(12), 198–201. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/5505>
5. Sanginova Gulnoza Bohodirovna, & H. Usmanova. (2022). MODEL OF INNOVATIVE STRATEGY ON THE BASIS OF VARIATIVE APPROACH TO PRESCHOOL EDUCATION. Conference Zone, 197–199. Retrieved from <https://www.conferencezone.org/index.php/cz/article/view/181>
6. Asilova S.X. (2022). THE ESSENCE OF TEACHING PRIMARY SCHOOL PUPILS TO LOGICAL THINKING IN THE PROCESS OF MATHEMATICS. Экономика и социум, (2-1 (93)), 24-26.
7. Nigoraxon, A., & Mohlaroy, A. (2024). BOSHLANG'ICH TA'LIMDA O'QUVCHILAR IJODIY FOALIYATINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 3(1), 83-87.
9. Maxliyoxon, O., & Mohizarxon, T. (2024). BADIY O 'QISH FANINING TALABALAR UCHUN AHAMIYATI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 17-19.
8. Akhrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). IMPACT, RESULTS AND CONSEQUENCES OF WTO ACCESSION ON THE EDUCATION SYSTEM. *International Multidisciplinary Journal of Universal Scientific Prospectives*, 2(1), 6-15.
9. Maxliyoxon, O., & Mohiraxon, T. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA VA BADIY O 'QISHDA RAQAMLI TEXNALOGIYALARDAN FOYDALANISH. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 99-103.
10. Axrorjon, A., & Maxliyoxon, O. (2024). TA'LIM SIFATI OSHISHIDA JSTNING O 'RNI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 113-118.



ANALYSIS OF INTERNATIONAL SCIENCES
International scientific journal

Volume: 2 Issue: 2



11. Maxliyoxon, O., & Marifatxon, A. (2024). BADIY O 'QISH VA DRAMA FANINING BOSHLANG 'ICH TA'LIMDAGI O 'RNI. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 104-108.
12. Abdullaev, A., & Odilova, M. (2024). THE ROLE OF WTO IN IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION. *Yosh Tadqiqotchi Jurnali*, 3(1), 140-148.
13. Mahliyo, R. Z., & Maxliyoxon, O. (2024). BOSHLANG 'ICH TA'LIMDA AKTYORLIK QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH. YANGI O'ZBEKISTONDA IJTIMOIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR, 2(1), 109-112.
14. Axadjon o'g'li, A. A., & Maxliyoxon, O. D. (2024). JSTGA A'ZOLIKNING RAQAMLI IQTISODIYOTGA VA TA'LIMGA IJOBIY TA'SIRI. *Analysis of International Sciences*, 2(1), 95-102.
15. UI Abdullaev Akhrorjon, Akhmadjonov O. (2023). Islom moliyasida shartnoma turlari. ISLOM INVESTITSIYA MAHSULOTLARI: XUSUSIYATLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI 1 ...